

**HOZIRGI O'ZBEK NASRIDA BOLA PSIXOLOGIZMI BADIY
TALQINI**

Nilufar Ismoiljonova Qahramonjon qizi

nilufarxonobidovna@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi bola psixologiyasini tasvirlashda qo'llanilgan badiiy vositalar — ichki monolog, ramz, orzu va tushlar tasviri, dialogik holatlar kabi elementlar tahlil qilinadi. Shuningdek, yozuvchining obraz yaratish mahorati, bola xarakterini ochishdagi uslubi hamda jamiyatda bola o'rni haqidagi qarashlari ilmiy yondashuv asosida yoritiladi. Tadqiqot natijalari zamonaviy o'zbek bolalar adabiyotida psixologik tahlilning o'rni va ahamiyatini ochib beradi, shuningdek, pedagogik, filologik hamda tarbiyaviy jihatdan dolzarb masalalarni ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: bola psixologiyasi, badiiy vosita, ichki monolog, ramz, orzu va tushlar, dialog, obraz yaratish, o'zbek bolalar adabiyoti, psixologik tahlil, tarbiyaviy ahamiyat.

Artistic interpretation of child psychology in contemporary Uzbek prose

Annotation: This thesis analyzes the artistic devices used in depicting a child's psychology, such as inner monologue, symbolism, the portrayal of dreams and wishes, and dialogic situations. It also examines the writer's mastery in creating characters, his style of revealing a child's personality, and his scientific perspective on the role of children in society. The findings highlight the importance of psychological analysis in modern Uzbek children's literature and demonstrate its pedagogical, philological, and educational relevance.

Keywords: child psychology, artistic device, inner monologue, symbol, dreams and wishes, dialogue, character creation, Uzbek children's literature, psychological analysis, educational significance.

Художественная интерпретация детской психологии в

современной узбекской прозе

Аннотация: В тезис анализируются художественные средства, используемые для изображения психологии ребёнка — внутренний монолог, символика, изображения мечтаний и снов, а также диалогические ситуации. Кроме того, рассматривается мастерство писателя в создании образов, его стиль раскрытия характера ребёнка и научный подход к определению роли детей в обществе. Результаты исследования выявляют значение психологического анализа в современной узбекской детской литературе и подчёркивают её педагогическую, филологическую и воспитательную актуальность.

Ключевые слова: психология ребёнка, художественные средства, внутренний монолог, символ, мечты и сны, диалог, создание образа, узбекская детская литература, психологический анализ, воспитательное значение.

KIRISH. Insoniyat yaralibdiki, uni qiziqtirib kelgan, chuqur o‘yga solgan masalalar juda ko‘p. Ulardan biri-inson uning ruhiyati, ichi olami. Har soha vakillari men kimman, nima uchun bu dunyoga keldim kabi savollarga javob izlamoqda. Bundan adabiyot ham mustasno emas. Adabiyot insonni ruhini, qalbini so‘z bilan ochib berishga intiladi. “Adabiyot, so‘z san’ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo‘lib keladi. Xususan, mustaqillik yillarida yurtimizda ma’naviyatimizning g‘oyat muhim va uzviy qismi bo‘lgan adabiyotni rivojlantirish, shoir va yozuvchilarimizning ezgu mehnatini qadrlash va munosib rag‘batlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar o‘z hosilini berayotgani, badiiy adabiyotimiz mavzular ko‘lami jihatidan ham, janrlar nuqtayi nazaridan ham rang-barang bo‘lib borayotgani, adabiyot maydonida yangi-yangi nomlar paydo bo‘layotgani kitobxon xalqimizni, albatta, quvontiradi. Bularning barchasi milliy tiklanish jarayonlari qalam ahlining ijodiy izlanishlari uchun qanday katta ufqlar ochib berganini yana bir bor ko‘rsatadi”¹.

“Adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko‘rsatadi. Bugungi

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – В. 136.

murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak”², degan fikr o‘zbek adabiyoti oldiga inson ruhiyatini badiiy asarlarda chuqurroq ochib berish majburiyatini yuklaydi. Badiiy adabiyot hamma fan bilan uzviy bog‘langan. Adabiyotshunoslar badiiy asarlarni inson psixologiyasi bilan uzviy aloqada tahlil etish orqali ularning ichki mazmuniy qatlamlarini yanada chuqurroq anglashga intilmoqda. Adabiyotshunoslikda badiiy matnlarni psixologik tahlil qilishga oid izlanishlar XX asr boshlarida boshlangan bo‘lib, bu boradagi ilk ilmiy yondashuvlar psixoanaliz asoschisi Zigmund Freyd va uning izdoshlari tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalar bilan chambarchas bog‘liqdir. Badiiy adabiyot inson ruhiyatining eng nozik va teran qatlamlarini ochib beruvchi kuchli vosita sifatida qadim zamonlardan beri insoniyat tafakkuri va madaniyatining ajralmas qismiga aylangan. Xususan, bolalar ruhiy olami, ularning kechinmalari, ichki iztiroblari va orzu-umidlari adabiyotda alohida mavzu sifatida o‘z aksini topgan. Adabiy asarlarda bola obrazining yaratilishi, uning psixologik holatini tasvirlash adibdan nafaqat badiiy mahorat, balki chuqur psixologik tafakkurni ham talab etadi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda psixologik tahlil usullarining rivojlanishi bilan birga, bolalar ruhiyatining badiiy aks ettirilishiga nisbatan ilmiy qiziqish ortib bormoqda. Ayniqsa, bola qalbidagi ichki kechinmalar, ularning tashqi dunyo bilan o‘zaro munosabatlari, ijtimoiy va ma’naviy muhit ta’sirida shakllanib boruvchi psixologik o‘zgarishlar bugungi adabiy-tahliliy tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Badiiy adabiyot inson ruhiyatining eng nozik va teran qatlamlarini ochib beruvchi kuchli vosita sifatida qadim zamonlardan beri insoniyat tafakkuri va madaniyatining ajralmas qismiga aylangan. Xususan, bolalar ruhiy olami, ularning kechinmalari, ichki iztiroblari va orzu-umidlari adabiyotda alohida mavzu sifatida o‘z aksini topgan. Adabiy asarlarda bola obrazining yaratilishi, uning psixologik holatini tasvirlash adibdan nafaqat badiiy mahorat,

² Мирзиёев Ш. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий боғида барпо этилган Адиблар хиёбониغا ташир буюрди. 20.05.2020. <https://www.uzreport.news/politics/shavkat-mirziyoev-alisher-navoiy-nomidagi-uzbekiston-milliy-bo-ida-barpo-etilgan-adiblar-h>

balki chuqur psixologik tafakkurni ham talab etadi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda psixologik tahlil usullarining rivojlanishi bilan birga, bolalar ruhiyatining badiiy aks ettirilishiga nisbatan ilmiy qiziqish ortib bormoqda. Ayniqsa, bola qalbidagi ichki kechinmalar, ularning tashqi dunyo bilan o‘zaro munosabatlari, ijtimoiy va ma’naviy muhit ta’sirida shakllanib boruvchi psixologik o‘zgarishlar bugungi adabiy-tahliliy tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylangan. O‘zbek adabiyotida bola ruhiyati tasviriga alohida e’tibor qaratgan ijodkorlardan biri — Xudoyberdi To‘xtaboyevdir. Uning asarlarida bolalarning beg‘ubor qalbi, hayotiy orzulari, qo‘rquv va iztiroblari, tashqi muhit bilan munosabatlari nihoyatda samimiy va tabiiy tarzda yoritilgan. Adib bola obrazini yaratishda chuqur psixologik yondashuvdan foydalanib, o‘quvchini o‘sha holat va kayfiyatni his etishga undaydi. Ayniqsa, “Jannati odamlar” va boshqa asarlarida bola ichki dunyosining murakkabligi chuqur tasvirlanadi. Mazkur tadqiqotda Xudoyberdi To‘xtaboyevning badiiy asarlari asosida bola ruhiyatining qanday ifodalanishi, ularning badiiy-estetik ahamiyati va psixologik jihatleri tahlil etiladi. Shu orqali adibning bolalar adabiyotidagi o‘rni va uning asarlarida bola qalbi qanday ochib berilgani aniqlashtiriladi. Shuningdek ilmy ishda bola ruhiyatiga ijtimoiy hayotning, odamlarning, ota-onaning, tarbiyaning naqadar ta’sir o‘tkazishi alohida e’tiborga olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 485 b.
3. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 592 б.
4. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Darslik. T., “O'qituvchi”, 2002.
5. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Darslik. T., “O'qituvchi”, 2011.
6. Barakayev R. O'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. T., “Fan”, 2004
7. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. T., “Musiq”, 2010; yana: Bolalik kuychisi. T., “Fan”, 1978; yana: Bolalarni erkalovchi o'zbek xalq qo'shiqlari. T., 1985; yana: Oliy o'quv yurtlarida bolalar adabiyotini o'qitish muammolari. “Til va adabiyot ta'limi” j., 1999y., 3-4 sonlar.